

**«Octobank» AJ ning jismoniy shaxslar – Bank xodimlari yoki  
Bankning korporativ mijozi uchun «Mikroqarz» kredit mahsuloti uchun  
AKSIYA QOIDALARI**

## **1. Umumiy qoidalar**

- 1.1.** Ushbu Aksiya qoidalari (bundan buyon matn bo'yicha – "Qoidalar") Aksiyani tashkil etish va o'tkazish tartibini, shuningdek jismoniy shaxslarning Aksiyada ishtirok etish shartlarini belgilab beradi.
- 1.2.** Aksiyani o'tkazish maqsadi Mikroqarz shaklidagi kredit mahsuloti orqali boshqa chakana mahsulotlarga jalb etish uchun «Octobank» (bundan buyon matn bo'yicha – «Bank») AJ mijzlari doirasini kengaytirish hisoblanadi.
- 1.3.** Aksiyada Mikroqarz – kredit mahsulotining barcha qarz oluvchilari ishtirok etishi mumkin, lekin faqat ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan tartibda va shartlarda Aksiya ishtirokchisi deb tan olingan qarz oluvchi Aksiya stavkasini qo'llanish shaklidagi alohida shartlardan foydalana olishi mumkin.
- 1.4.** Ushbu Qoidalar Aksiya ishtirokchisi maqomiga mos keladigan qarz oluvchilar uchun shartnoma kuchiga ega bo'ladi va kredit shartnomasining bir qismi bo'lib qoladi.
- 1.5.** Aksiya ishtirokchisi Mikroqarz bo'yicha kredit shartnomasini tuzish sanasidan kechikmagan holda Bankka tegishli yozma ariza bilan murojaat qilib Aksiya ishtirokchisi maqomini rad etish huquqiga ega bo'ladi.
- 1.6.** Aksiyani o'tkazish davri 2026-yil 24-fevraldan 2026-yil 31-dekabrgacha belgilanadi.

## **2. Atamalar va tushunchalar**

- 2.1.** Aksiya - Qarz oluvchi ushbu Qoidalarning shartlariga rioya qilganida Bankning kredit bo'yicha Aksiya stavkasini qo'llanishni ko'zda tutadigan taklifi.
- 2.2.** Mikroqarz – Bank tomonidan jismoniy shaxslarga ularning shaxsiy ehtiyojlari uchun beriladigan, qat'iy belgilangan foiz stavkasi va sug'urta badallari to'lanishini ko'zda tutadigan Bankning kredit mahsuloti.
- 2.3.** Aksiya ishtirokchisi – jismoniy shaxs – kredit Shartnomasini tuzish sanasida ish haqini Bank tomonidan ish haqi loyihasi doirasida chiqarilgan bank kartasiga oladigan Bank xodimi yoki Bankning korporativ mijozi.
- 2.4.** Aksiya stavkasi – kredit shartnomasi va ushbu Qoidalar bilan ko'zda tutilgan tartibda va shartlarda Aksiya ishtirokchisi hisoblanadigan Qarz oluvchiga nisbatan qo'llaniladigan kredit bo'yicha pasaytirilgan foiz stavkasi.
- 2.5.** Bazaviy stavka – kredit shartnomasi shartlari bilan belgilangan va quyidagi Qarz oluvchilarga nisbatan qo'llaniladigan kredit bo'yicha foiz stavkasi:
- Aksiya ishtirokchisi hisoblanmaydigan Qarz oluvchilarga nisbatan;
  - ushbu Qoidalar bilan ko'zda tutilgan tartibda Aksiya ishtirokchisi maqomini yo'qotgan Qarz oluvchilarga nisbatan.
- 2.6.** Aksiya ishtirokchisi maqomining yo'qotilishi – Qarz oluvchining ushbu Qoidalarning 2.3-bandi talablariga muvofiqligining tugashi yoki Qarz oluvchining yozma arizasi asosida uning iltimosi bo'yicha tugatilishi.

## **3. Aksiyada ishtirok etish shartlari**

- 3.1.** Aksiya stavkasini qo'llanish uchun Qarz oluvchi kredit shartnomasini tuzish sanasida Aksiya ishtirokchisi maqomiga muvofiq bo'lishi zarur.

**3.2.** Agar Qarz oluvchi Aksiya ishtirokchisi maqomiga kredit shartnomasini imzolagandan so'ng ega bo'lgan bo'lsa, bunday hollarda Bazaviy stavka Aksiya stavkasiga o'zgartirilmaydi.

**3.3.** Qarz oluvchi Kredit shartnomasini imzolash bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:

- shartnomani imzolash sanasida o'zining Aksiya ishtirokchisi maqomiga muvofiqligini (Aksiya stavkasini qo'llanishda);

- ushbu Qoidalarning shartlariga roziligini;

- ushbu Qoidalarning 5.3-bandida ko'zda tutilgan hollarda foizlar stavkasining Aksiya stavkasidan Bazaviy stavkaga o'zgarishiga roziligini.

#### **4. Aksiya stavkasini qo'llanish tartibi**

**4.1.** Aksiya stavkasi Aksiya ishtirokchisining maqomi Bank tomonidan tasdiqlangandagina kredit berilgan sanadan boshlab qo'llaniladi.

**4.2.** Bank Qarz oluvchi va/yoki ish beruvchidan Aksiya ishtirokchisi maqomini tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega.

**4.3.** Bank kredit shartnomasi amal qilishining butun muddati mobaynida Aksiya ishtirokchisi maqomining monitoringini olib boradi.

#### **5. Aksiya ishtirokchisi maqomining yo'qotilishi va foiz stavkasining o'zgarishi**

**5.1.** Qarz oluvchining ushbu Qoidalarning 2.3-bandi talablariga muvofiqligi tugaydigan hollarda u Aksiya ishtirokchisi maqomini yo'qotadi.

**5.2.** Qarz oluvchi Aksiya ishtirokchisi maqomining yo'qolganligi to'g'risida Bankni darhol xabardor qilishi shart.

**5.3.** Foizlar miqdorining Aksiya stavkasidan Bazaviy stavkaga o'zgartirilishi Bankka Qarz oluvchining Aksiya ishtirokchisi maqomini yo'qotganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan ish kunidan keyingi ish kunidan boshlab amalga oshiriladi.

**5.4.** Bank Bankning mobil ilovasidagi to'lov grafigini yangilaydi va joylashtiradi yoki Qarz oluvchining so'roviga ko'ra Bank bo'linmasiga taqdim etadi. Bunda Kreditni to'lashning yangilangan grafigi ilgari mavjud bo'lgan grafikni bekor qiladi.

**5.5.** Aksiya ishtirokchisi maqomi yo'qotilgandan keyin kredit shartnomasining amal qilish muddati mobaynida ushbu maqomga qayta ega bo'lish Aksiya stavkasining qayta qo'llanilishiga olib kelmaydi.

#### **6. O'zaro axborot aloqasi**

**6.1.** Qarz oluvchi shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga va Aksiya ishtirokchisining maqomini tekshirish uchun zarur ma'lumotlarni berishga rozilik beradi.

#### **7. Yakuniy qoidalar**

**7.1.** Ushbu qoidalar Bank Boshqaruvi alohida kredit mahsulotlari bo'yicha aksiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

**7.2.** Bank ushbu Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega, agar bunday o'zgartirishlar Qarz oluvchining tuzib bo'lingan kredit shartnomalari bo'yicha holatini yomonlashtirmaydigan bo'lsa.

**7.3.** Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa barcha masalalar bo'yicha tomonlar kredit shartnomasi shartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladilar.